



MEKSIKA AGERATUMI – ЎЗБЕКИСТОННИНГ АРИД ҲУДУДЛАРИ
УЧУН ИСТИҚБОЛЛИ ТУР

Abdixoliqova S.M.

Qarshi davlat universiteti magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7774379>

Arid mintaqaga kiruvchi Qarshi vohasining iqlim sharoiti, ayniqsa ekstremal yozi boshqa zonalardan keltirilgan ajnabiy o'simliklarning o'sishi va rivojlanishi uchun anchagina noqulay hisoblanadi. Bu yerda yoz oylari changli bo'ronlarning bo'lishi, atmosfera qurg'ochiligining uzoq muddat davom etishi, quruq shamollar o'simlik turlarini inroduksion tanlash darajasini juda pasaytirib yuboradi. Shu sababli quyosh kun bo'yi tushadigan maydonlarni ko'kalamzorlashtirish va bunday joylarda yoz oylarida gullab turgan manzarali o'simliklarni topish qiyin kechadi (1, 2). Buning asosiy sabablaridan biri inroduksiya qilish uchun tanlangan o'simliklarni istiqbollilik darajasini o'rganilmaganligi hisoblanadi.

Meksika ageratum (Ageratum houstonianum) murakkabguldoshlar oilasi ageratum (Ageratum) turkumiga mansub tropik o'simlik b'lib, Qarshi vohasining issiq va quyuq e'ziga barqaror istiqbolli o'simlik (3). Davomli gullashi sababli greklar unga shu nomni berishgan. Grekchada "ageratos" so'zi "doim navqiron", "qarimas" degan ma'nolarni anglatadi. Amerika kashf etilganidan so'ng Yevropaning botanika bog'lariga georgina, kosmeya, tagetes, sinniya, mirabilis, tuberoza kabi yangi o'simliklar keltirila boshlandi. Ular orasida xushbuy va momiqqina gullovi ageratum ham bor edi.

Birgina Markaziy Amerika, Meksika va Peruda ageratumlarning 27 turi o'sadi. Ammo gulchilikda faqatgina meksika ageratum deb nomlangan turdangina foydalaniladi. Uning boshqacha Xouston ageratum deb aytiladi (A. houstonianum syn. A. mexicanum). Bu gul vositasida bir tekis, yorqin, mo'l va davomli gullaydigan bordyurlar yaratish mumkin. Zamonaviy ageratum navlaridan foydalanib nafaqat moviy rangli, balki oppoq, pushti, binafsharang va qo'ng'ir rangli gulzorlar barpo etish mumkin.

Ageratum tupi ixcham bo'lib, unchalik baland emas. Bo'yi nav xususiyatiga qarab 10 sm dan 60 sm gachani tashkil qiladi. Barglari yuraksimon, chetlari tishchali. Uning savatcha to'pgullari g'ovak yoki zich qalqonga yig'ilgan. Urug'lari avgust-sentabrda yetiladi. Pishib yetilishi bilan uchib ketadi. Shu sababli qo'ng'ir tusga kira boshlagan to'pgulini terib olish kerak. Urug'lari unuvchanligini uch-to'rt yil mobaynida saqlaydi. 1 g ida 6000-7000 ta urug' bo'ladi.





Tropik kelib chiqishga ega bo'lishiga qaramay ageratumlar mo'tadil iqlimli zonalarda ham keng tarqalgan. Bu erlarda ular bir yillik manzarali gullar sifatida qo'llaniladi. Ammo ular bunday sharoitda ham mo'l va to'q urug'lar hosil qiladi. Ageratumlarning yana bir afzallik tomoni shundaki, ular tuproq sharoitiga talabchan emas. Ammo yengil, ishqoriy va unumdor tuproqda yuqori manzara hosil qiladi. Ildiz tizimining yaxshi rivojlanganligi uning qurg'oqchilikka va tuproqning qizib ketishiga bardoshini oshiradi. Shu sababli bu tur Qarshi vohasi sharoitida yaxshi o'sib rivojlanadi.

Agar gullarining ochilishidan avval gulli novdasini qirqib olinsa va to'pgullarini pastga osiltirib soya va salqin joyga osib qo'yilsa bir yilgacha rangi va ko'rinishini saqlab turadi. Shu holatdagi ageratumdan qishda guldastalar tayyorlashda foydalanish mumkin. Ageratumlardan rudbekiya, sinniya va kalendula singari gullar bilan birgalikda o'ta manzarali guldasta yasash mumkin.

Qarshi sharoitida issiqxonada yetishtirilgan ageratum ko'chatlari mart aprelning boshida ochiq joyda ekilsa, may oyining boshidan gullay boshlaydi va kech kuzga qadar uning gullashi davom etadi. Oq ageratumni gullab bo'lgan gullarini qirqib turish orqali yanada mo'l gullashiga erishish mumkin.

Meksikada ageratumlar ko'pyillik o'simlik hisoblanadi. Qarshi vohasi sharoitida ularni bir yilliklar sifatida o'stiriladi.

Ageratumlarni ko'paytirishning eng samarali usuli urug'lari orqali ko'paytirishdir. Qarshi vohasi sharoitida ageratum urug'larini fevral oyida issiqxona sharoitida ekiladi. Urug'larini chirigan nuri, qum va bog'tuproq aralashtirilgan tuproqqa ekish kerak. Bunda ularning nisbati 1:1:1 bo'lishi maqsadga muvofiq. Ageratumning urug'lari juda mayda bo'lganligi sababli ustidan qalin qilib tuproq sepish yaramaydi. Urug'lar sepilgandan so'ng tuproqni namlab turish zarur. Buning uchun pulevizator bilan sug'orilgan tuproq ustini polietilen plenka bilan yopish kerak. Urug'larni unib chiqishi uchun optimal harorat +21-23oC hisoblanadi. Shunday sharoitda urug'lar 10-kuni unib chiqa boshlaydi. Bu paytga kelib polietilen plenkanini olib tashlash kerak bo'ladi va haroratni +18-21oC gacha tushiriladi. Maysalarda ikki juft chin barg hosil bo'lishi bilan ularni siyraklatiladi. Ageratum maysalari juda tez rivojlanish xususiyatiga egaligi sababli bu tadbirni kechiktirib bo'lmaydi. Shuningdek, agar maysalar siyraklatilmasa keyinchalik ular yaxshi gullamaydi. Siyraklatish maqsadida maysalar orasida sug'urib olingan ko'chatchalarni boshqa joyga ekish mumkin. Beshinchi-oltinchi haftadan havo harorati 17-20 oC bo'lishini ta'minlanadi.

Aprelning birinchi o'n kunligida ko'chatlarni doimiy joyga ko'chiriladi. Doimiy joyga ko'chirilgan ko'chatlar orasida bo'yi juda o'sib ketganlarini ko'chirib





o'tkazilganidan 1 hafta o'tib chilpish tavsiya etiladi. Shundan so'ng har hafta bir marta uni oziqlantirib turiladi. Bunda mol go'ngidan foydalanilmaydi. Mineral o'g'itlar ageratumlar uchun eng yaxshi oziqa bo'lib hisoblanadi. Shu tartibda yetishtirilgan ko'chatlar may oyining birinchi kunlaridan gullay boshlaydi.

Qurg'oqchilik mavsumida ageratumlarni tez-tez me'yorida sug'orib turish kerak. Ammo yerni me'yoridan ortiq namlantirmaslik kerak.

Areatumlarni qirqish va ularga shakl berish uning manzaraliligini yanada oshiradi. Uni bemalol uchdan bir qismigacha kalta qilib qirqish mumkin. Shunday qilinganda u tezda tiklanadi va yana yangi novdalar hamda gullar hosil qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Саматова Ш. А., Каттабоева Г. С. Особенности роста и развития гибридных ирисов в условиях жаркого и сухого климата //Биологические ресурсы: изучение, использование, охрана. – 2018. – С. 262-266.
2. Саматова Ш. А., Мейлиева Н. И. Результаты первичной интродукции *Potentilla indica* (Andrews) T. Wolf в экстрааридных условиях Каршинского оазиса //Научные труды Чебоксарского филиала Главного ботанического сада им. НВ Цицина РАН. – 2020. – №. 15. – С. 156-157.
3. Саматова Ш. А. Ареалогическая структура цветочно-декоративных растений культурной флоры Каршинского оазиса //Проблемы ботаники Южной Сибири и Монголии. – 2022. – Т. 21. – №. 2. – С. 180-182.

